

ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM VA TARBIYA TO'G'RISIDAGI
QARASHLARI

Abdulaminova Adolat Abdurasul qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim,

Logopediya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Abdulla Avloniyning oilada va jamiyatda bola tarbiyalash, unga ta'lim-tarbiya berish borasida yozgan asarlari, qarashlari va fikrlari biz uchun katta meros. Maqolada uning ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlariga nazar tashlangan va qisqa yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Odob-axloq, ta'lim-tarbiya, fikr, xulq, barkamol shaxs

Barkamol va har tomonlama salohiyatli yoshlarni tarbiyalash masalasi har bir ijodkor asarlarining bosh g'oyasi sanaladi. Bolaning shaxs sifatida voyaga yetishi eng birinchi oilaga borib taqaladi. U asosan oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tayanchi sanaladi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, toki u yaxshi o'qishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin. Odob-axloq, tarbiya tushunchalarini o'z asarlarining asosiy poydevori sifatida ilgari surgan, o'zbek dramaturgiyasi va teatrining yangicha maorifi va matbuotining asoschilaridan sanalmish Abdulla Avloniy 1878-1934 yillarda yashab ijod etgan.

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

1. «Tarbiyaning zamoni».
2. «Badan tarbiyasi».
3. «Fikr tarbiyasi».
4. «Axloq tarbiyasi».

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdur. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratlibo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan -uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U, birinchi navbatda, bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish lozimligini uqtiradi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur:

«Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Avloniy intizomni inson xarakterini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi omil, deb biladi hamda unga doim rioya qilish kerakligini ta'kidlaydi: «Intizom qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar»

Abdulla Avloniyning asarlarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Uning asarida insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Abdulla Avloniyinsonning baxt-saodatga, erishuvi faqat bilimga bog'liqligini e'tirof etadi.

A. Avldoniy ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat beradi. Inson aqliy faoliyatinnig ifodasi bo'lmish fikr tarbiyasi orqaligina katta sharafga, barkamollikka erishadi, bu o'rinda o'qituvchinnig fikrlash doirasining kengligi, bilim saviyasinnig har jihatdan yuksakligi o'quvchilari tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish aql bilan ish tutishga olib keladi: o'quvchilarni yaxshi xulqlar bilan yomon xulqlarni farqlashga, komil inson uchun zarur bo'lgan yaxshi xulqlarni egallashga, insonni zalolatga yetaklovchi yomon xulqlardan uzoq bo'lishga o'rgatadi.

Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining o'rni haqida fikr yuritib: «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, Ollohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq erdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur», –deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniyning qarashlari hozirgi kunda ham komil insonni kamol toptirishda kishilarni chinakam tuyg'ular, umuminsoniy ezgu g'oyalar ruhida, vijdoniylik ruhida tarbiyalash borasida qimmatli manba sifatida e'tiborni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Mustaqil mamlakatimizning ham oliy maqsadi har tomonlama yetuk barkamol shaxsni voyaga yetkazishdir. Har ikki jihatdagi mushtarak maqsadni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinifdanoa o'quvchilarni tarbiyalashda Abdulla Avloniyning ma'rifatparvarlik qarashlari asosida barkamol shaxsni tarbiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari.
2. A. Boboxonov, M. Maxsumov, “A. Avloniy pedagogik faoliyati” 1999 yil. 31-36-bet.
3. Nuraliev A. “Buyuklar xazinasini” Toshkent “Fan” 2001-yil.101-bet.
4. <http://www.bilimdon.uz>
5. <http://www.ziyonet.uz>